



VENA KONGRESSIDAN SO'NG YEVROPADA KUCHLAR BALANSI

Javokhir Ergashov Inomjon o'g'li

Jizzax shahar 29-maktab tarix o'qituvchisi

ergashevjavohirjon@mail.com

Annotatsiya: Diplomatik munosabatlar tarixi har doim muhim sanaladi va bunda Vena Kongressining o'rni beqiyos. Vena Kongressi Yevropa uchun keyingi davr xalqaro munosabatlarini belgilab berdi. Bu davr tarixi haqida o'zbek tilida yozilgan va xalqaro munosabatlar tarixiga doir bo'lgan ko'plab katta va kichik tadqiqot ishlaridan, Universitetlar uchun mo'ljallangan jahon tarixi darsliklaridan ma'lumot olishimiz mumkin. Ushbu maqolada Vena kongressidan keyingi Yevropada kuchlar balansi, turli ittifoqlar va urushlar, diplomatik g'alaba va mag'lubiyatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Vena Kongressi, Muqaddas ittifoq, shartnoma, hujjat, diplomatiya, urushlar, "buyuk kuchlar", Parij sulhi.

Abstract: The history of diplomatic relations is always considered important, and the role of the Congress of Vienna is incomparable. The Congress of Vienna defined the international relations of the next period for Europe. We can get information about the history of this period from many large and small research works written in Uzbek and related to the history of international relations, from world history textbooks intended for universities. This article describes the balance of power in Europe after the Congress of Vienna, various alliances and wars, diplomatic victories and defeats.

Key words: Congress of Vienna, Holy Alliance, treaty, document, diplomacy, wars, "Great Powers", Treaty of Paris



Аннотация: История дипломатических отношений всегда считается важной, а роль Венского конгресса несравненна. Венский конгресс определил международные отношения следующего периода для Европы. Информацию об истории этого периода мы можем получить из многих больших и малых исследовательских работ, написанных на узбекском языке и связанных с историей международных отношений, из учебников всемирной истории, предназначенных для вузов. В данной статье описывается расстановка сил в Европе после Венского конгресса, различные союзы и войны, дипломатические победы и поражения.

Ключевые слова. Венский конгресс, Священный союз, договор, документ, дипломатия, войны, «Великие державы», Парижский договор

KIRISH

XIX asr dunyo tarixida alohida ahamiyatli davr hisoblanadi. Bu davr avvalo, industrializm hamda imperializmning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. 1800 – 1900 yillarda Yevropaning qudratli davlatlari dunyoning bo‘lib olis harakatlarini amalga oshirishdi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya kabi jahon imperiyalari tuzildi. Bu davrdagi asosiy xalqaro munosabatlarni tartibga solish ishlari Napoleon Bonapartga qarshi ittifoqning vujudga kelishi bilan boshlandi. Vena Kongressi bu borada katta ahamiyat ega bo‘lib, aynan Venada imzolangan hujjatlar Yevropada kuchlar balansini ushlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Vena kongressi adabiyotlarda “Yevropa konserti” degan nom oldi. Yevropa konserti davrida gumanitar huquqqa ham asos solingan[1;21]. Ushbu umumyevropa kongressi, keyinchalik vujudga kelgan beshlik ittifoqi, Rossiya tashabbusi bilan paydo bo‘lgan “Muqaddas ittifoq” Yevropaning XIX asr siyosiy hayotini belgilab berdi. Yaxshi ishlab chiqilmagan bo‘lsada yuqoridagi kabi kongress va ittifoqlar muhim tarixiy ahamiyatga ega edi. Keyingi yillarda Sankt-Peterburgda, Parijda, Berlinda bo‘lib o‘tgan kongresslar ham



Vena tizimidagi xalqaro munosabatlarning bo'g'ini hisoblanadi. Bu davrdagi bo'lib o'tgan nizolar, inqiloblar, davlatlar o'rtasidagi urushlar, "Ems depeshasi" kabi diplomatik o'yinlar Vena tizimini batamom inqirozga yuzlantirdi. Ushbu maqolada Vena kongressidan keyingi davrda Yevropadagi kuchlar muvozanatidagi o'zgarishlarning 1880-yillargacha bo'lgan tarixi qisqacha tadqiq va tahlil etilib, yoritilib beriladi.

ADABIYORLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yevropaning XIX asr tarixi, xususan, diplomatik munosabatlari tarixi haqida ko'plab kitoblar va internet nashrlardan bilib olishimiz mumkin. Misol uchun, Jeremy Blackning "A History of Diplomacy", James HarveryRobinsonning "An Introduction to the History of Western Europe" nomli kitoblaridan umumiy ma'lumotlarga ega bo'lamiz. [Crankshav](#), [Eduard](#)larning "Bismark". [Hovard](#), [Michael](#)larning "The Franco-Prussian War", Koch H. W. ning "A History of Prussia", [Taylor, A. J. P.](#)ning "Bismarck, The Man and the Statesman", Kissinger, Henry A.larning (1957). "A World Restored, Metternich, Castlereagh and the Problems of Peace, 1812–22" nomli tadqiqot ishlari va nashrlarida esa Germaniya tarixi hamda Butun XIX asr davomida Germaniyadagi o'zgarishlar, hukumat rahbarlarining, xususan Matternix hama Otto fon Bismarklarning olib brogan diplomatic siyosati va shu asrdagi Yevropa diplomatiyasida Germaniyaning o'rne haqida bilimlar olishimiz mumkin. Vena kongressining Buyuk Britaniya va Fransiya uchun ahamiyatli tomonlarini Webster, Charles tomonidan nashr etilgan (1913). "England and the Polish-Saxon problem at the Congress of Vienna". Zamoyski, Adamning (2007). "Rites of Peace; the Fall of Napoleon and the Congress of Vienna", Chapman, Timlarning (1998). "The Congress of Vienna 1814–1815", [Dakin, Douglas](#)ning (1979). "The Congress of Vienna, 1814–1815 and its Antecedents", In Sked hamda Alanning "Europe's Balance of Power 1815–1848" nomli asarlar batafsil yoritib bergan. Ferraro, Guglielmoning "The Reconstruction of Europe in 1814–1815" (1941), Forrest, Alanlarning "The Hundred Days, the Congress of Vienna and the Atlantic Slave Trade in Napoleon's Hundred Days and the



Politics of Legitimacy” (2018), Gabriels, Josning “Cutting the cake: the Congress of Vienna in British, French and German political caricature”(2017) deb nomlangan tadqiqotlarida esa Vena kongressidan keying xalqaro munosabatlarning Nafaqat Yevropa, balki dunyo miqyosida taraqqiy etishi ham ochib berilgan. Gulick, E. V.ning “The final coalition and the Congress of Vienna, 1813–15”, C. W. Crawleyning “The New Cambridge Modern History”, Jarrett, Markning “The Congress of Vienna and its Legacy: War and Great Power Diplomacy after Napoleon” (2013), [Kissinger, Henry A.](#)ning (1956)“, Kohler, Max Jamesning “Jewish Rights at the Congresses of Vienna” (1814–1815) va Aix-la-Chapellening “Publications of the American Jewish Historical Society”, (1918) kabi asarlarda esa Kongressdan keying diplomatic munosabatlarning jamiyat va shaxslar hayotiga ko‘rsatgan ta’siri, xalqlar huquqlari, xususan, yahudiylar huquqlarining ifodalanishi masalalari haqida fikrlar ilgari surilgan. Krache, Ennolarning “E. Metternich’s German Policy”. (1984), Kan, Jonathanning “The Congress of Vienna, 1814–1815: diplomacy, political culture and sociability”(2020), Lane, Fernanda Bretones, Guilherme de Paula Costa Santos, and Alain El Yousseflarning “The Congress of Vienna and the making of second slavery”(2019), Langhorne, Richardning “Reflections on the Significance of the Congress of Vienna”(1986), Lockhart, J. G.ning (1932). “The Peacemakers 1814–1815”deb domlangan maqola va dissertatsiyalarida esa avvalo, kongresning Germaniyani birlashtirishdagi ahamiyati, undan tashqari Kongres belgilab bergan xalqaro munosabatlar tizimi shablonlari haqida bahs yuritiladi. Nicolson, Haroldning “The Congress of Vienna: a Study in Allied Unity, 1812–1822”(1946), Oaks, Augustus; R. B. Mowatlarning (1918). “The Great European Treaties of the Nineteenth Century”, Peterson, Genevievening “Political inequality at the Congress of Vienna”(1945), Schenk, Joep. “National interest versus common interest: The Netherlands and the liberalization of Rhine navigation at the Congress of Vienna (1814–1815 (2018), Schroeder, Paul W.lar tomonidan yozilgan(1994). “The Transformation of European Politics, 1763–1848”, Sluga, Glendaning



“Who Hold the Balance of the World?” (2017), Vick, Brianlarning “The Congress of Vienna. Power and Politics after Napoleon”. 2014, [Webster, Charles](#)ning (1922). “The pacification of Europe” tadqiqotlarda esa Yevropada tichlik oʻrnatish va yangi davlatlar tuzilishada Vena Kongressi qarorlarining koʻrstagan taʼsiri haqida soʻz boradi. Gooch, G. Pning “The Cambridge history of British foreign policy, 1783–1919”, [Webster, Charles](#)ning (1919). “The Congress of Vienna, 1814–1815” va 1931-yildagi “[The Foreign Policy of Castlereagh, 1812–1815, Britain and the Reconstruction of Europe](#)” (qayta nashri 2017 va 2020-yillarda) kabi ilmiy tadqiqot ishlarida Yevropadagi kuchlar balansining XIX asr davomida qay tarzda oʻzgarishlarga uchraganligi borasidagi maʼlumotlarni olishimiz mumkin.

NATIJALAR

Yevropa miqyosida Napoleon armiyasining olib borgan urushlari natijasida qitʼaning “Buyuk davlatlari” Vena shahrida Kongress chaqirishga qaror qilishadi. Ushbu Kongress 1814-yil sentyabrdan to 1815-yil iyunigacha Avstriya poytaxti Venada avstriyalik diplomat graf Aleksandr Metternix boshchiligida oʻtkaziladi. Kongressda Buyuk Britaniyadan Arthur Wellesley, Dyuk Wellington, Robert Stewart, graf Castlereagh, Charles Stewart, birinchi Baron Stewart, Richard Le Poer Trench, William Cathcart[3;143-160], Rossiyadan graf Gustav Ernst von Stackelberg, shahzoda Andrey Kirillovich Razumovsky, graf Karl Robert Nesselrode, Fransiyadan Louis Joseph Alexis, Comte de Noailles, Frederic-Seraphin de La Tour du Pin Gouverne, Emmerich Joseph, Dyuk Dalberg, Charles Maurice de Talleyrand-Perigord, Shvetsiyadan graf Carl Lowenhielm, Portugaliyadan Oriola grafligining[2;110] yettinchi grafi Joaquim Lobo Silveira, Porto Santo António de Saldanha da Gama, Palmelaning birinchi grafi Pedro de Sousa Holstein, Avstriyadan Klemens Wenzel, shahzoda va kansler von Metternix[14], Baron Johann von Wessenberg, Friedrich von Gentz (Kongress rahbari), Prussiyadan shahzoda Karl August von Hardenberg, Baron Wilhelm von Humboldt[6], Ispaniyadan Labrador hududining birinchi markizi Pedro



Gómez Labrador, Daniyadan graf [Niels Rosenkrantz](#)[9] ishtirok etadi. Shvetsariyaning har bir hududi o'z delegatsiyasi bilan qatnashadi, bunda Jeneva hukmdori [Charles Pictet de Rochemont](#) asosiy ro'l o'ynaydi[12]. [Sardiniya](#) qirolligidan Marquis [Filippo Antonio Asinari di San Marzano](#), Papa davlatidan Kardinal Konsalve va yana boshqa ko'plab vakillar ishtirok etdi[5;4]. Faqatgina, Usmoniylar davlatidan vakillar qatnashmadi, qolgan barcha Yevropa davlatlari o'z vakillari orqali ishtirok etadi. 1815 yil 9-iyunda asosiy hujjat - 121 moddadan iborat Vena kongressining yakuniy akti imzolandi. Bu shu paytgacha tuzilgan har qanday xalqaro shartnomalarning eng keng qamrovli shartnomasi edi [22]. Vena kongressida Italiya masalasi Burbonlar foydasiga, ularning Shimoliy Sitsiliya qirolligida taxtni egallashi bilan hal etildi. Papa o'z erlarini qaytarib oldi, Sitsiliya qirolligi Genuyani qo'shib oldi. Milliy federatsiya shaklida Germaniya imperiyasining tiklanishini istayotganlarning orzulari ushalmadi. Buning o'rniga o'zaro teng huquqli hisoblangan o'ttiz to'rtta davlat va to'rtta erkin shaharlar birlashib, "Germaniyaning ichki va tashqi xavfsizligini, ittifoqqa kirgan davlatlar mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlash uchun" ittifoqqa birlashdilar. Ittifoq ishlarini yuritish Avstriya boshchiligidagi seymga topshirildi. Belgiya va Niderlandiya qirolligi shahzoda Oranskiy-Nassauga berildi[18]. Shveysariya, Vallis, Jeneva va Nevshatel qo'shib 19 ta ozod, mustaqil va neytral kantonlardan iborat konfederatsiya tashkil qilindi[2]. Vena kongressi daryo yo'llarining kesishayotgan davlatlar kemalari qatnovi uchun ochiqdigi to'g'risida deklaratsiyani ham qabul qildi. Yakunlovchi aktga ilova qilingan deklaratsiya negr-qullar savdosini taqiqladi. Fransiya qarshi hamma koalitsiyalarda qatnashib kelayotgan Angliya oxir oqibatda o'z maqsadiga erishdi. U Yevropada o'zining chegarasini tikladi va Fransuz inqilobi hamda Napoleon urushlari davrida bosib olingan hamma erlarini o'zida qoldirdi. Bularning eng asosiylari Kap yerlari, Seylon, Britaniya Gvianasi, Trinidad, Tobago, Malta edi. Angliya Ion orollari ustidan o'z protektoratini o'rnatdi va Shimoliy dengizdagi Gal-golland erlarini o'ziga qo'shib oldi. Napoleonning Vaterloodagi mag'lubiyatidan keyin 1815-yil noyabrda



Rossiya, Fransiya, Angliya, Avstriya va Prussiya o'rtasida Ikkinchi Parij tinchlik sulhi deb ataluvchi yangi shartnoma imzolandi[10;321]. Fransiyaning hududini 1792-yilgi chegaralarigacha qisqartirgan birinchi shartnomaga nisbatan bunisi Fransiya uchun yanada noqulayroq edi. Uning hududi taxminan 1792-yilgi chegarasigacha qisqardi va besh yil ichida 700 mln frank oltin hisobida tovon (kontributsiya) to'lashi, hamda shu pul to'languncha ittifoqchilarning Fransiya qoldirilgan okkupatsion qo'shinlarini boqishi lozim edi[11;153].

TAHLIL VA MUHOKAMA

Vena Kongressi Napoleon urushlaridan keyin xalqaro miqyosda tinchlikni saqlashga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, u birinchi navbatda Yevropada kuchlar nisbatini tartibga solish yo'lida tashkil etilgan edi. E. Sondersning fikricha, "bu sulolalar vakillarining murosa izlab yig'ilishi bo'lib, uning asosida diplomatiya hukmron doiralarni urush va inqilob xavfidan himoya qilishi mumkin edi" [22]. Yevropaning buyuk davlatlari say-harakatlariga qaramasdan ushbu Kongress va unda amalga oshirilishi belgilangan rejalar amalda tizimi ko'p jihatdan 1823-yilga kelib barbod bo'ldi[13]. Kongressdan keyingi davr, ya'ni XIX asrning qolgan qismi yanada inqilobiy tusda, ko'proq urush va nizolarga moyillikning alohida kuchayishi bilan xarakterlanadi. Kongress parchalanishini inglizlar boshlab beradi. 1818-yilda inglizlar o'zlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmaydigan kontinental masalalarga aralashmaslikka qaror qildilar. Xususan, ular rus podsho Aleksandr I ning XIX asr 20-yillaridagi inqiloblarni bostirish harakatlariga reaksiya bildirishmadi va jimgina kuzatishdi. Vena Kongressi qarashlarining kengayishi sifatida Prussiya Qirolligi va Avstriya va Rossiya imperiyalari xristian ijtimoiy qadriyatlarini va an'anaviy monarxizmni saqlab qolish uchun Muqaddas Ittifoqni (1815-yil 26-sentyabr) tuzdilar. Ittifoqning maqsadi vayronkor Fransiya inqilobiy urushlari ortidan Yevropada respublikachilik va dunyoviylikni cheklash edi va ittifoq Qrim urushigacha (1853-1856) bunga erishdi. Biroq Britaniya[7] 1815-yil 26-sentyabrda Muqaddas Ittifoqni imzolagan uch davlat tomonidan Parijning Ikkinchi Tinchlik



shartnomasi (1815-yil 20-noyabr) bilan bir kunda imzolangan To'rtlik ittifoqni ratifikatsiya qildi, bu Yevropa xalqaro munosabatlarini rivojlantirdi. Ittifoq birinchi marta 1813-yilda Fransiya qarshi turish uchun tuzilgan va bir-biriga yordam berishga va'da bergan. 1818-yilda Burbonlar Fransiya qo'shilgach, u Beshlik ittifoqiga aylandi. Napoleon urushlari tugaganidan keyingi yigirma yil ichida Yevropada xalqaro munosabatlarning rivojlanishida qaysi shartnoma ko'proq ta'sir ko'rsatganligi haqida tarixchilar o'rtasida ko'p bahs-munozaralar yuzaga keldi. Tarixchi Tim Chapmanning fikriga ko'ra, shartnomalar shartlari to'liq kelishib olinmagan va ularning ko'pchiligida aniq maqsadlar yo'q[8]. Xususan, Muqaddas ittifoq podshoh Aleksandr I ning tashabbusi edi. Ko'pchilik Yevropa monarxlari uni imzolashtan bosh tortgan holda podshohni xafa qilishni xohlamadilar va u o'z hukumatlarini emas, balki monarxlarni shaxsan bog'laganligi sababli, imzolangandan keyin uni e'tiborsiz qoldirish oson edi. 1820-yil oktyabrda Troppa (Sileziya) o'tkazilgan Muqaddas ittifoqning navbatdagi kongressida Avstriya kansleri[14] Metternixning talabi xalqaro miqyosda davlatlarning ichki ishlariga aralashishga ruxsat etiladi. Bunga sabab Neapolitan qirolligidagi inqilob va buning natijasida Avstriya hukumatining Venetsiya va Lombardiya ustidan o'z hukmronligini yo'qotish xavfi bo'ldi. Ayni paytda Rossiya, Avstriya va Prussiya hukumatlari Polshadagi milliy-ozoddik harakatlarining ham oldini olmoqchi edi. 19-noyabr kuni Rossiya, Avstriya va Prussiya hukumatlari boshqa davlatlarning ichki ishlariga u yerdagi har qanday ozodlik harakatlarini bostirish maqsadida shu davlatlar hukumatlarining iltimosisiz ham harbiy aralashish huquqi to'g'risida protokol imzoladilar. Angliya va Fransiya ushbu protokolni imzolamadilar ammo uning qabul qilinishiga qarshilik qilmadilar. Italian davlatlarining hukumatlari bilan muzokaralar olib borish qulay bo'lishi uchun kongress 1821-yil yanvarda Laybax (Lyublin, Polsha) shahriga ko'chib o'tdi[17]. Bu yerda Rossiya va Avstriya imperatorlari, Pruss qirolligi hamda Angliya va Fransiya vakillari Neapolitan qirolligi va boshqa italyan monarxlari bilan uchrashdilar. Tez orada Piemontdagi inqilob va Gretsiyaning turklarga qarshi qo'zg'oloni haqida xabar



tarqaddi. Yuqorida aytilganidek, Aleksandr I greklarga yordam qilishdan bosh tortdi. Avstriya qo'shinlari esa Muqaddas ittifoqning roziligi bilan Italiyadagi inqilobiy harakatni bostirdi. Iqtisodiy rivojlangan Angliya bilan hali yarimfeodal munosabatlar ustun bo'lgan boshqa davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar Muqaddas ittifoqning keyingi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari Angliyada va kamroq bo'lsada, boshqa mamlakatlarda ham mavqei oshib borayotgan liberal burjuaziya ham ittifoqqa qarshi edi. Ittifoqning g'oyalari va u qabul qilgan qarorlar ham Yevropa jamiyatining ilg'or qismida norozilik uyg'otayotgan edi. Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik harakatlariga aralashish, ularni bostirishga urinish ayniqsa Muqaddas ittifoqning obro'siga katta putur yetkazdi. Rossiya, Avstriya va Prussiya Fransiya Ispaniyadagi inqilobni bostirish va Lotin Amerikasi mustamlakalaridagi milliy-ozodlik harakatlariga qarshi kurashda Ispaniya hukumatiga yordam berish vakolatini berdilar. Faqat 1823-yili[19;14-19] AQSh prezidenti Monro tomonidan Amerika qit'asini yevropaliklardan himoya qilishga qaratilgan bayonot berilishi (Monro doktrinasi) va buning Angliya tomonidan qo'llab-quvvatlanishi Lotin Amerikasida fransuz qo'shinlari paydo bo'lishining oldini oldi. Ammo 1823-yil 7-iyun kuni 100 ming kishilik fransuz qo'shinlari Ispaniyaga kirdi va inqilobni bostirdi. Vena kongressi va Ispaniyaga qarshi intervensiya Muqaddas ittifoq a'zolari tomonidan birgalikda amalga oshirilgan oxirgi akt bo'ldi. 1824-yil yanvarda Angliya tomonidan Ispaniya mustamlakalari bo'lgan Lotin Amerikasi mamlakatlari mustaqilliklarining tan olinishi (1824-yil 31-dekabr) Muqaddas ittifoqning birligini to'liq barbod qildi. Yevropa mamlakatlarida tobora yoyilib borayotgan liberal harakat, boshlanib kelayotgan inqilobiy va milliy-ozodlik harakatlari Muqaddas ittifoqning asoslarini buzib tashladi[16]. 1825-yil yanvar oyida Sankt-Peterburgda beshlik ittifoqning kongressi bo'lib o'tdi, Buyuk Britaniya ishtirok etmagan ushbu yig'ilishda Rossiya, Avstriya, Prussiya va Fransiya Usmonlilar va yunon hududlari masalasini ko'rib chiqishdi. 1826-yil 2-martda Vellington Rossiyaning yangi imperatori Nikolay bilan uchrashadi, shundan so'ng Rossiya ham greklarni qo'llashni boshlashdi.



1826-yil 4-aprelda fransuz tilida yozilgan Sankt-Peterburg protokolini Rossiya tomonidan knyaz de Liven va Nasseldore, Buyuk Britaniyadan Vellington imzoladi[11;156]. Ushbu protokolda Gretsiyaning Usmonli imperiyasining avtonom hududiga aylanishi, har yili o'lpon to'lashi, mamlakatda vijdon erkinligi, savdo va ichki boshqaruv ta'minlanishi, Gretsiyaning chegaralari keyinchalik ingliz va rus diplomatlari, shuningdek yunonlar va turklar ishtirokidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi belgilandi. Shu asosda 1827-yilda Gretsiya tashkil topdi.

Vena kongressida nemis davlatlari o'rtasida ittifoq tuzish masalalari muhokama qilindi[23], bu jarayonda ikki xil ittifoq rejalari ishlab chiqilgan edi: 1. Prussiya vakillari "Birlashgan ittifoq" nomli mustahkam ittifoq tuzish sxemasini taqdim etdilar, bunga ko'ra davlatardagi markaziy hukumat umumiy manfaatlarga taalluqli barcha masalalarda umumiy nazorat o'rnatish kerak edi. 2. Bu g'oya Avstriya tomonidan qarshilikka uchradi, chunki ularning nazdida bu zaif ittifoq bo'lishi va unda Avstriya o'z so'ziga ega bo'lmasligi ehtimoli bor edi. Avstriya mustaqil knyazlarning xalqaro ittifoqini tuzishni va buni konstitutsiya[15] bilan mustahkamlashni taklif etdi. Ushbu konfederatsiya amalda juda zaif ittifoqqa aylandi va ko'p o'tmay faoliyatini to'xtatdi. Vena Kongressdan keying xalqaro munosabatlar Ispaniya, Italiya, Gretsiya kabi davlatlarda ham ancha jadallashadi. 1820-yilda Ispaniya va Neapolda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar qirollarning yon berishga va Konstitutsiya ishlab chiqishga majbur qiladi. Ayni shu davrda Italiyada ham jadal o'zgarishlar sodir bo'ladi. Xususan, 1820-yilda Avstriya kansleri Mitternix Italiyani shunchaki geografik ifoda, hech qanday davlatchilik shakli yo'q hudud deb ataydi. Amalda Lombardiya va Venetsiyaning shimoliy qismi Avstriya monarxiyasi, Parma, Modena va Toskana avstriyalik zodagon oila a'zolariga tegishli edi. Janubda, Sitsiliyani ispan burbonlari sulolasi boshqargan. Markazda yarim orol ikkiga bo'linib, shimoldan Po daryosigacha cho'zilgan hududlar Papa davlati edi. Ayrim mamlakatlarda "Millatlar bahori", "Xalqlar bahori" yoki "Inqilob yili" deb nomlanuvchi 1848-yilgi inqiloblarda[24]



butun Yevropa bo'ylab bir qator siyosiy to'ntarishlar bo'ldi. Bu Yevropa tarixidagi eng keng tarqalgan inqilobiy to'lqin bo'lib qoldi. Inqiloblar mohiyatan demokratik xarakterga ega bo'lib, eski feodal tuzilmalarni yo'q qilish va mustaqil milliy davlatlar barpo etishni maqsad qilgan. Inqilobiy to'lqin fevral oyida Fransiya boshlandi va darhol Yevropaning ko'p qismi va Lotin Amerikasiga ham tarqalib 50 dan ortiq mamlakatlar ta'sir ko'rsatdi, ammo ularning tegishli inqilobchilari o'rtasida hech qanday muvofiqlashtirish yoki hamkorlik bo'lmadi. 1848-yildagi inqilob ikkita yirik xalqaro [mojarolarni keltirib chiqardi](#), ular keyingi yillarda davom etadi va Italiya va Germaniyada birlashgan milliy davlatlarning yaratilishi bilan yakunlanadi. Xuddi shu kuni 1848-yil 23-martda Sardiniya qiroli o'z qo'shinlarini Lombardo-Venetsiya qirolligiga jo'natdi va Shlezvig va Golshteyn inqilobiy hukumati Germaniyani Konfederatsiyadan yordam so'rab Daniyaga qarshi chiqdi. Shunday qilib 1848–1849-yillarda birinchi Italiya mustaqillik urushi boshlandi va 1848–1850-yillarda birinchi Daniya-Germaniya urushi bo'lib o'tdi. Ularning ikkalasi ham muvaffaqiyatsiz tugadi, ammo Italiya va Germaniyani birlashtirish uchun birinchi qadam tashlandi[4;267]. Yevropada sodir bo'lgan o'zgarishlar, mamlakatlar boshqaruv apparatlariga majburiy aralashuvlarning kuchayishi hamda Fransiyaning 1870-yilgi urushdan Prussiyadan qabul qilib olgan mag'lubiyati natijasida Italiya mustaqil davlat sifatida tashkil topadi. Bungacha bo'lgan yillarda Qirol Viktor Emmnuel Fransiya imperatori Napoleon III bilan bir necha bor to'qnashadi. 1861-yilgi to'nashuvda Fransiya qo'li baland kelgan edi. Shu sabab Italiya mustaqilligi 10 yilga ortga suriladi.

Vena Kongressidan so'ng Buyuk Britaniya va Fransiya 1850-yilgacha Yevropada eng katta siyosiy va diplomatik ta'sirga ega davtlar edi, ammo 1850-yillarga kelib ular Rossiya va Prussiyaning kuchayib borayotganidan qattiq xavotirga tusha boshladilar. 1853-56-yillardagi Qrim urushi va 1859-yilgi Italiya urushi Yevropadagi buyuk davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni buzdi. 1851-yilda Napoleon III boshchiligidagi Fransiyaning Usmonli hukumatiga o'tkazgan siyosiy ta'siri natijasida Usmoniylar



Fransiyaning "Muqaddas Yer"dagi – Quddusdagi nasroniy hududlarning himoyachisi sifatida tan olishga majbur bo'ldi. Rossiya esa bu da'voni qoraladi, chunki Rossiya o'zini Usmonli imperiyasidagi barcha Sharqiy pravoslav nasroniylarning himoyachisi deb da'vo qilayotgan edi. Fransiya o'z flotini Qora dengizga yubordi bu paytda esa Rossiya o'zining harbiy kuchlarini harakatga keltirib, 1851-yilda Usmonlilarning Moldaviya va Valaxiya viloyatlariga qo'shin kiritdi. Endilikda Usmonli imperiyasining xavfsizligidan qo'rqqan Britaniya, ruslar chekinishini kutgan holda, fransuzlarga yordam uchun flot yubordi. Diplomatiya harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so'ng Sulton 1851-yil oktyabr oyida Rossiyaga qarshi urush e'lon qildi. Noyabr oyida Usmonli dengiz floti mag'lubiyati ortidan Buyuk Britaniya va Fransiya Rossiyaga qarshi urush e'lon qildi. 1853-1856 yillarda bo'lib o'tgan Qrim urushida[21] Bolqonda o'z ta'sirini kengaytirishga uringan Rossiya Buyuk Britaniya, Fransiya, va Usmonli imperiyasi ittifoqiga qarshi kurashdi. Bu urush Rossiyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Janglarning aksariyati Qrim yarim orolida bo'lib o'tdi, uni ittifoqchilar nihoyat egallab oldilar. Fransiya Yevropaga hukmronlik qilish maqsadida urushdan keyingi ittifoq tuzish uchun Rossiya bilan yashirin muzokaralar olib borayotganidan xabar topgan London, Sankt-Peterburgga hujum qilish rejalaridan voz kechdi va buning o'rniga Rossiya bilan bir tomonlama sulh tuzdi va bu urush maqsadlarining deyarli hech biriga erisha olmadi. 1856-yil 30-martda imzolangan Parij shartnomasi urushni tugatdi[21]. U Usmonli imperiyasini "Yevropa kontserti"ga qabul qildi va siyosiy kuchlar uning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini hurmat qilishga va'da berdi. Rossiya va Usmonlilar hududidagi nasroniylar ustidan protektorat qilish da'vosidan voz kechdi. Qora dengiz demilitarizatsiya qilindi va Dunay daryosida savdo va navigatsiya erkinligini kafolatlash uchun xalqaro komissiya tuzildi. 1870-yildan keyin Germaniyaning yuksalishi Yevropa kuchlar muvozanatini qayta tashkil etdi. Hammasi "Ems depeshasi"dan boshlandi.



Ems depeshasi - Ems dispatch (fransuzcha Dépêche d'Ems, nemischa Emser Depesche), ba'zan Ems Telegrammasi deb ham ataladi, 1870-yil 14-iyulda e'lon qilingan. Ushbu voqea sabab 1870-yil 19-iyulda Ikkinchi Fransiya imperiyasi va Prussiya Qirolligi o'rtasida urush boshlanadi. Ems aslida Lahn daryosi bo'yidagi Koblenzdan sharqda, so'ngra Prussiyaning yangi mulki bo'lgan Gessen-Nassauda joylashgan Bad Ems kurortiga tegishli edi. Voqeaning vujudga kelishi tarixini quyidagicha tasvirlasak bo'ladi. 1866-yil 16-iyundan 23-avgustgacha bo'lgan Avstriya-Prussiya urushi janubiy va shimoliy Germaniya davlatlari, shuningdek, yangi paydo bo'lgan Italiya bilan bir qatorda Prussiyaning kuchini oshirdi. 1866- yil 3- iyulda Koniggrats (yoki Sadova) jangida Avstriya mag'lubiyatga uchradi. 26-iyulda Nikolsburgdagi dastlabki tinchlik shartnomasi, Pragada 23-avgustda imzolangan navbatdagi tinchlik shartnomalarini Germaniyani birlashtirishda, Prussiyaning mavqeyini ko'tarib, Avstriyani obro'sizlantirishda judayam qo'l keladi. Shunday qilib, Bismark Avstriyani Germaniya Konfederatsiyasidan chiqarib yuborishga, Shimoliy Germaniya Konfederatsiyasini tashkil etish va hukmronlik qilishga, Prussiyaning hududiy yutuqlarini ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. Gannover, Shlezvig-Golshteyn, Nassau va Gessen-Kassel va Frankfurt Prussiya tarkibiga qo'shildi. Bu davrda Fransiya qisqa muddatli, ammo Yevropa kuchlar muvozanatini o'zgartiradigan urushda qatnashmadi, hududlar va obro' orttirmadi. 1870-yil boshida nemis shahzodasi Leopoldga Rim-katolik kadet bo'limi boshlig'i Gogenzollern Sigmaringen[8;53]bo'sh Ispaniya taxtini taklif qiladi. Fransiya imperatori Napoleon III va uning hukumati Prussiya qirolligida hukmronlik qilgan Gogenzollern protestantlar uyi bilan Ispaniya ittifoqining ehtimoliy vujudga kelishidan tashvishga tushdi, va taxtga o'z nomzodini ilgari surish aks holda esa urush ochish bilan tahdid qilishdi. Fransiyaning noroziliklaridan so'ng, Leopold 1870-yil 11-iyulda taxt uchun da'vodan bvoz kechdi bu esa Prussiya uchun diplomatik mag'lubiyat deb hisoblana boshlandi. Fransiya bu bilan qanoatlanmadi va talablarni oshirdi. Endilikda Prussiya kelgusida ham Ispan taxtiga da'vo qilmaslik majburiyatini olish kerak edi. Voqeani batafsil



bayon qilsak: 1870-yil 13-iyulda Prussiya qiroli Vilgelm I Emsdagi Kurparkda ertalab sayr qilayotganida, 1864-yildan beri Fransiyaning Prussiyadagi elchisi bo'lgan graf Vinsent Benedetti [8;54] qirolni oldiga keladi va talablarni bayon qiladi. Ushbu ko'rsatmani Benedettiga uning boshlig'i, Fransiya tashqi ishlar vaziri Agenor bergan edi. O'zaro fikr almashishlardan so'ng "ikkovi sovuqqonlik bilan jo'nab ketishdi"[20;121]. Shimoliy Germaniya Konfederatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining Maxfiylik masalalari bo'yicha maslahatchisi Geynrix Abeken Berlinda Otto fon Bismarkga ushbu voqea haqida telegramma jo'natdi. Telegrammada qirol Vilgelm Benedettini "zerikarli darajada qat'iyatli" deb ta'riflagani ham yozildi. Kansler Bismarkda voqeani matbuot orqali tasvirlash uchun yetarli darajada vakolat bor edi va Bismark ushbu kuchdan foydalanadi. Matbuot e'lon qiladigan xabarning rostligini isbotlash uchun esa xabarlarda Abekenning ma'lumotlaridan ham foydalanadi. U Vilgelmning samimiy iboralarini telegrammadan olib tashlaydi va xabar mazmunini o'zgartirib fransuzlar va nemislar o'zaro qarshi qo'yadi – xabarda yozilishicha go'yoki qirol fransuz elchisiga orqa o'giran, suhbatlashmagan va xurmatsizlik qilgan. Bu esa xalq g'azabiga sabab bo'ladi[8;54]. Shubhasiz, Bismarkning o'sha kuni (13-iyul) kechqurun ommaviy axborot vositalari va xorijiy elchixonalariga e'lon qilingan matnida Benedetti ancha talabchanroq va qirol o'ta keskin bo'lgandek taassurot qoldirdi. Bismark Fransiya bilan yomonlashayotgan munosabatlardan xursand edi va tezroq urush chiqishini istardi. Chunki Bunday yirik urushdagi g'alaba Germaniyaning yakuniy davlat sifatidagi birlashuvi uchun juda muhim edi. Bu borada Bismarkning do'stlariga qarata aytgan "Gal(Fransuz) buqasini bizning qizil matolar maxf etadi" iborasi yomonlashgan Fransiya-Germaniya munosabatlarining yorqin ifodasi o'laroq tarixda qoldi. Fransiya uchun muhim kun bo'lgan 14-iyul ya'ni Bastiliya qulatilgan kunda Bismark tayyorlagan telegramma fransuzlarga o'qib eshittirildi. Uning mazmunidan g'azablangan fransuz xalqi urush talabi bilan chiqishdi. 1870-yil 19-iyulda Fransiya urush e'lon qilib, Fransiya-Prussiya urushini boshlab berdi. 1871-yilda fransuzlar mag'lubiyatga uchraganidan so'ng,



gersog de Gramon fransuz diplomatiyasining muvaffaqiyatsizliklari uchun aybni Benedetti zimmasiga yuklamoqchi bo'ldi va u o'zining "Ma mission en Prusse"[8;56] tezisida bu haqida fikrlarini bayon qildi.

Keyingi yigirma yil davomida Otto fon Bismark shartnomalar taklif qilish va Yevropa davlatlari o'rtasida uch tomonlama ittifoq kabi ko'plab murakkab ittifoqlarni yaratish orqali ushbu muvozanatni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. 1878-yilda Bolqon va dunyoning turli burchaklarida nazorat o'rnatish masalasida Berlin Kongressi bo'lib o'tadi. Bu amalda buyuk davlatlarning dunyo ustidan hokimiyatga erishish uchun urinishlari edi. Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning say-harakatlari bilan 1879-yilda Germaniya va Avstriya-Vengriya imperiyasi o'rtasida sulh tuziladi. Uch yildan so'ng bu ittifoqqa Italiya ham qo'shiladi va dastlabki harbiy-siyosiy blok vujudga keladi.

XULOSA

Yuqorida XIX asrda Yevropada va qisman butun dunyoda mavjud bo'lgan kuchlar nisbati haqida muhokama qilindi. Bu davrning asosiy xarakterli belgisi shunda ediki, ushbu xalqaro munosabatlar va "buyuk kuchlar" o'rtasidagi muvozanat qaror topishida Vena Kongressi muhim ro'l o'ynadi. Diplomatik munosabatlar tarixida Vena tizimi nomini olgan ushbu Kongressda mamlakatlarning tashqi siyosatlari yo'nalishlari belgilab berilganligi guvohi bo'ldik. XIX asr 70-yillari oxirigacha bo'lgan davr muhokama mavzuda ekan, avvalo, shuni aytish joizki, bu davrda amalda bo'lgan diplomatik munosabatlar hamda keyinchalik vujudga kelgan yirik ittifoqlar amalda dunyoni bo'lib olishda muhim ahamiyat kasb ketti. Otto fon Bismarkdek kuchli siyosatchilarning mavjudligi Yevropada kuchlar nisbati balansini barqarorlashtirdi hamda ushbu kuchlarning Yevropadan boshqa hududlarning uchun harakat rejalarida hal qiluvchi ro'l o'ynadi. 1815 – 1882 yillar oralig'ida vujudga "Beshlik", "Muqaddas ittifoq" kabi birlashmalar amalda hech qanday ahamiyatli ish qila olmadi. Bundan xulosa qilgan va dunyoni qayta bo'lishga intilayotgan



Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya 1879 – 82 yillarda har doimgidar qudratliroq bo‘lgan “Uchlar ittifoqi”ni vujudga keltirishdi.

ADABIYOTLAR:

1. Abror Turayev. Xalqaro munosabatlar tarixi. Magistratura uchun ma`ruzalar matni.8-mavzu. Jizzax davlat Pedagogika universiteti 2023. 21-bet
2. Artz, Frederick B. (1934). Reaction & Revolution: 1814–1832. b-110
3. Blinn, Harold E. (1935). "New Light on Talleyrand at the Congress of Vienna". Pacific Historical Review. 4 (2): 143–160. [doi:10.2307/3633726](https://doi.org/10.2307/3633726).
4. [Crankshaw, Edward](#). Bismarck. The Viking Press. 1981. 267-bet
5. [Dakin, Douglas](#) (1979). "The Congress of Vienna, 1814–1815 and its Antecedents".
6. Ferraro, Guglielmo. “The Reconstruction of Europe; Talleyrand and the Congress of Vienna, 1814–1815” (1941) [online](#)
7. Gutbrod, Hans. "[When Great-Power Politics Isn't Great Enough](#)". Foreign Policy. 9 November 2022.
8. [Howard, Michael](#). The Franco-Prussian War. New York: Dorset Press. 1990 (originally published in 1961). [ISBN 0-88029-432-9](#) 53-bet
9. Jarrett, Mark (2013). The Congress of Vienna and its Legacy: War and Great Power Diplomacy after Napoleon. London: I.B. Tauris & Company, Ltd. [ISBN 978-1780761169](#). [online review](#)
10. James Harvery Robinson “An Introduction to the History of Western Europe”. 2008. 321-bet
11. Jeremy Black “A History of Diplomacy”, 2010. 153-bet
12. [King, David](#) (2008). Vienna, 1814: How the Conquerors of Napoleon Made Love, War, and Peace at the Congress of Vienna. Harmony Books. [ISBN 978-0-307-33716-0](#). [OCLC 144548388](#). [OL 10353114M](#).



13. [Kirish bob. Vena kongressining boshlanishi \(1814\) \(fayllar.org\)](#)
14. [Kissinger, Henry A.](#) (1957). A World Restored; Metternich, Castlereagh and the Problems of Peace, 1812–22. Boston: [Houghton Mifflin](#). ISBN 9781626549784.
15. Koch, H. W. A History of Prussia. New York: Dorset Press. 1987 (originally published in 1978). ISBN 0-88029-158-3 b- 262
16. [Mavzu: Muqaddas ittifoq va uning kongresslari Reja \(muhaz.org\)](#)
17. Nicolson, Harold. The Congress of Vienna: a Study in Allied Unity, 1812–1822 (1946) [online](#).
18. Schenk, Joep. "National interest versus common interest: The Netherlands and the liberalization of Rhine navigation at the Congress of Vienna (1814–1815)." in Shaping the International Relations of the Netherlands, 2018 13–31-betlar.
19. Sked, Alan. "Europe's Balance of Power 1815–1848". London: [Macmillan](#). 14–33-betlar.
20. [Taylor, A. J. P.](#) Bismarck, The Man and the Statesman. New York: Vintage Books. 1967. 121-bet
21. Treaty of Paris//[Treaty of Paris | End of Crimean War, Peace Negotiations, Great Powers | Britannica](#)
22. Vick, Brian. The Congress of Vienna. Power and Politics after Napoleon. [Harvard University Press](#), 2014. ISBN 978-0674729711.
23. [Zamoyski, Adam](#) (2007). Rites of Peace; the Fall of Napoleon and the Congress of Vienna. HarperCollins. ISBN 978-0-0607-7518-6. OL 7281494M.
24. Революции 1848 г. - Revolutions of 1848//[Революции 1848 г. - Revolutions of 1848 - abcdef.wiki](#)